



Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy
malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Savdo sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Savdo sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-027



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT-2.1) muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, savdo sohasiga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi.

Tarmoq malaka ramkasi savdo sohasidagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek kasb standartlarini ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Savdo sohasida malakalar bozorini rivojlantirishning umumiy strategiyasini shakllantirish, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorining xususiyatlarini tavsiflash, shuningdek, savdo sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, bozor holatini monitoring va tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga xalqaro talablarga mos texnik reglamentlarni joriy etish, tashqi savdoni tartibga solishni muvofiqlashtirish hamda elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda yuqori sifat va mehnat unumdorligini ta'minlovchi kadrlar tayyorlash tizimini yaratish TMRning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tarmoq malakalar ramkasi – tarmoqda tan olinadigan malaka darajalarining tarkibiy tavsifi bo'lib, kasbiy faoliyatlarga qo'yiladigan malaka talablarini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va mas'uliyat xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida malaka darajasiga, mehnat mazmuni, sifati va shart-sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi standart;

bilim – ta'lim olish va shaxsiy tajriba orqali ma'lumotni o'zlashtirish natijasi bo'lib, mehnat sohasiga oid faktlar, tamoyillar va nazariyalar yig'indisi;

ko'nikma – kasbiy faoliyatni amalga oshirish va mehnat vazifalarini bajarish maqsadida bilimlarni qo'llash hamda kompetentlikni namoyon etish (mantiqiy, intuistik, ijodiy va amaliy fikrlashni qo'llash orqali);

tajriba – muayyan vaqt davomida bilim va ko'nikmalarning (mahorat) o'zlashtirilishi va samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ongli faoliyat;

kompetensiyalar – muayyan malaka darajasidagi kasbiy faoliyat vazifalarini bajarishni ta'minlovchi faoliyat subyektining sifatlari;

chakana savdo (retail trade) – iste'molchilarga tovar va xizmatlarni sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat;

ulgurji savdo – butun boricha, ko'p miqdorida, ko'tara savdo orqali tovar mahsulotlarini iste'molchilariga yoki ularni chakana tarzida savdo qiladigan xaridorlarga tovarlar yirik va ulkan (partiya)lari bilan ko'tarasiga sotiladigan bozor;

marketing – mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqish, xaridorlarga yetkazib berish, shuningdek xaridorlar, xodimlar, ta'minotchilar va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni kompaniya manfaati yo'lida boshqarish bo'yicha maqsadlar, vazifalar, funksiyalar, usullar va strategiyalar majmuidir;

elektron tijorat – internet orqali tovarlar yoki xizmatlarni sotib olish va sotish;

Zargar – qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina va boshqalar) hamda toshlardan turli xil bezak buyumlari yasovchi mutaxassis.

Tosh kesuvchi – qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni (brilliant, yoqut, zumrad, aqiq va boshqalar) shakllantirish, silliqlash va sayqal berish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

Qimmatbaho toshlarni o'rnatuvchi – zargarlik buyumlariga toshlarni o'rnatish ishlarini bajaruvchi mutaxassis.

Qimmatbaho metallar – oltin, kumush, platina va ularning qotishmalari bo'lib, zargarlik buyumlarini yasashda asosiy material sifatida ishlatiladi.

Qimmatbaho toshlar – Zargarlik buyumlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiiy olmoslar, yoqutlar, zumradlar, sapfirlar, aleksandritlar, xom va qayta ishlangan tabiiy marvaridlar va boshqa sun'iy toshlar.

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar — zeb-ziynat, maishiy hamda diniy ashyolar sifatida qo'llaniladigan, qimmatbaho metallardan va ularning qotishmalaridan yasalgan hamda ushbu Qonunda belgilangan eng past asillik darajalaridan kam bo'lmagan asillik darajalariga ega bo'lgan, shu jumladan bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar va boshqa materiallar o'rnatilgan yoki o'rnatilmagan holda yasalgan buyumlar yoxud tabiiy yoki sun'iy materiallardan yasalgan, bezakli ishlov berishning har xil turlaridan foydalanilgan, qimmatbaho toshlar o'rnatilgan holda yasalgan buyumlar (uzuk, sirg'a, marjon, bilaguzuk, bros, soat qobig'i va hokazo).

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi — bu ishlov berish, shakllantirish, o'yma, payvandlash, abrazivlash, o'rnatish va pardozlashning texnologik jarayonlari to'plamidir.

Proba (metall tozaligi) – zargarlik buyumidagi qimmatbaho metallning sof miqdorini bildiruvchi belgi.

Zargarlik asbob-uskunalari – metall va toshlar bilan ishlash uchun qo'llaniladigan maxsus vositalar: bolg'acha, payvand apparati, silliqlash mashinasi, lupa, mikroskop, kesuvchi disk, qoplama vositalari va boshqalar.

Zargarlik dizayni – buyum shakli, naqshi, o'lchami va bezak elementlarini badiiy jihatdan loyihalash jarayoni.

Model (andaza) – zargarlik buyumi tayyorlanishidan oldin ishlab chiqiladigan nusxa yoki chizma.

Silliqlash va sayqallash – metall va tosh sirtini tekislash, yaltiratish, jilosini oshirish jarayoni.

Payvandlash (lehmlash) – metall qismlarni bir-biriga biriktirish texnologik jarayoni.

Zargarlik sinovi va sifat nazorati – tayyor mahsulotning proba, tosh o'rnatish sifati, mustahkamlik va tashqi ko'rinishini tekshirish jarayoni.

Zargarlik materiali – qimmatbaho metallar, qotishmalar, toshlar, emal, lak, bo'yoq va boshqa yordamchi materiallar.

Qotishma – turli metallar aralashmasidan hosil qilingan, zargarlikda ishlov berishni yengillashtiruvchi material

Zargarlik buyumlari dizayneri — bu mahsulotlar uchun badiiy yechimlarni ishlab chiqadigan mutaxassis.

Zargarlik ustaxonasi – zargarlik buyumlarini tayyorlash, ta'mirlash va sinovdan o'tkazish uchun jihozlangan ish joyi.

Brend (zargarlik markasi) – muayyan zargar yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning nomi yoki savdo belgisi.

Toshkent xalqaro arbitraj markazi – turli davlatlarda joylashgan tijorat tashkilotlari, shu jumladan, xorijiy investorlar o'rtasida yuzaga keladigan shartnomaviy va boshqa fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni, xususan, investitsiyalar, intellektual mulk va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq nizolarni xalqaro arbitraj orqali hal etishni tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi markaz.

TMRning maqsadi – Savdo sohasida e'tirof etilgan malaka darajalarining tizimli tavsifini shakllantirish, sohani rivojlantirish istiqbollari va strategiyasini inobatga olgan holda mavjud malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilash, shuningdek kasblarni malaka darajalari bo'yicha xaritalash.

TMRning vazifasi – Savdo sohasida qo'llaniladigan va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchi-xodimlarning funksional xulq-atvori, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash hamda ular asosida kasbiy standartlarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yish.

TMRni ishlab chiqish tamoyillari:

- soha ishchi-xodimlarining funksiyalari (funksional xulq-atvori), ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash;

- quyi malaka darajasidan yuqori malaka darajasiga o'tishda funksiyalarning uzluksizligini ta'minlash;

- funksiyalar tavsifining aniq, mantiqiy va qisqa bo'lishi;

Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi savdo sohasi bo'yicha tarmoq malakalar ramkasi sakkizta malaka darajasini o'z ichiga olgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

TMR turli foydalanuvchilar guruhlar (ish beruvchilar, ta'lim tashkilotlari, fuqarolar, ishchi-xodimlar) uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1) kasbiy standartlar va ta'lim standartlarini ishlab chiqishda ishchi-xodimlar hamda bitiruvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni yagona nuqtai nazardan tavsiflash;

2) ta'lim turi va ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar (norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma va malakalar) barcha bitiruvchilar va ishchi xodimlar malakasini baholash uchun zarur uslubiy tavsiyalar va tartib-qoidalarni ishlab chiqish;

3) muayyan malaka darajasiga erishish va kasbiy o'sishga olib keladigan turli xil ta'lim yo'nalishlarini rejalashtirish.

TMR Milliy malaka tizimining tarkibiy elementi sifatida, mutaxassisning malakasiga qo'yiladigan talablarni, bajarilayotgan mehnat vazifalarining murakkabligi hamda savdo sohasining ijtimoiy-mehnat doirasida qo'llaniladigan bilim va ko'nikmalarning xususiyatlariga qarab darajalarga ajratadi. Bu tasnif mutaxassisning malakasini baholash va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TMR savdo sohasidagi ishchi-xodimlarning kasbiy-ixtisoslashtirilgan malakalarining tavsifini o'z ichiga oladi. Kasblar bo'yicha guruhlangan asosiy malaka darajalari kelajakda kasbiy standartlarni ishlab chiqishda va malakalarni baholashda qo'llaniladi.

TMR kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun malaka darajalarining yagona shkalasini belgilash, malakalarning o'zaro taqqoslanishi ta'minlash, mutaxassislarning malakaga muvofiqligini baholash hamda malakani tan olish tizimi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Malaka darajasi muayyan ta'lim dasturini o'zlashtirish va/yoki amaliy tajribaga (norasmiy va informal orttirilgan ko'nikma) ega bo'lish natijasi hisoblanadi.

Malaka darajasi amaliy ish tajribasini orttirib borish, o'z ustida ishlash va o'qib-o'rganish jarayonida oshib borishi mumkin.

Ta'lim va o'qitishning turli shakllari hisobini yuritish tarmoq malakalar tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Xodimning bilimlari, amaliy tajribasi va malaka oshirishini hisobga olgan holda individual ta'lim yo'nalishini (traektoriya) shakllantirish xodimga malaka darajalari bo'yicha ham vertikal, ham gorizontaal yo'nalishlarda rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-216-1-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-719-1-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 03-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida" gi O'RQ-712-II-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 04-oktyabrda "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida" gi O'RQ-301-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 01-noyabrda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" gi O'RQ-587-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-582-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrda "Elektron tijorat to'g'risida" gi O'RQ-792-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3068-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktabrda "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3356-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktabrda "Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4503-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-aprelda "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-67-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-oktyabrda "Zargarlik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-303-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyunda "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktyabrdagi "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5564-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 196-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar.

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT 2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

OTM – Oliy ta'lim muassasasi.

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Savdo sohasi — tovar muomalasining bir turi, mehnat mahsulotlari va xizmatlarni oldi-sotdi yo'li bilan ayirboshlash shakli. Bunda tovar xaridi miqdori, tovar sifati, sotishdan oldin yoki keyin xizmatlar ko'rsatish, sotib olingan tovar yoki xizmat haqini hisob-kitob qilish tartibi va boshqa shartlashiladi;

Sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi qiymat almashuviga doir munosabatlar. Tovar ishlab chiqarish paydo bo'lishi bilan tovarlarni pul vositasida ayirboshlash, ya'ni Savdo vujudga kelgan. Xalq xo'jaligining ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ajralib chiqqan va tovarlarni olish, sotish va ular bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishda vositachilik faoliyatini amalga oshiradigan tarmog'i. Ishlab chiqarish bilan iste'molni o'zaro bog'laydi, tovarlarni so'nggi iste'molchi (aholi)ga yetkazishni ta'minlaydi. Ulgurji va chakana savdoga bo'linadi. Ulgurji Savdo — tovarlarni ishlab chiqarish iste'moli yoki qayta sotish uchun yirik partiyalarda sotib oladigan yoki saqlaydigan, ularni chakana Savdoga, iste'molchi yoki boshqa savdo tashkilotlariga sotadigan muassasalar majmui. Chakana Savdo — bevosita iste'molchining pul daromadlariga ayirboshlash yo'li bilan yakka yoki kichikroq miqdordagi tovarlarni sotib oxirgi iste'molchiga xizmat ko'rsatadi. Savdo ichki va tashqi Savdoga bo'linadi. Ichki Savdo bir mamlakat doirasida tovar muomalasiga xizmat ko'rsatadi. Tashqi Savdo mamlakatlararo tovar muomalasini qamraydi. Sug'urta, turizm, fraxt, bank faoliyati "ko'rinmas" (joriy harakatlar bo'yicha sezilmas)ga kiradi.

Tarmoq malaka ramkasi savdo sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini

mehnat bozori hamda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Savdo faoliyat sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

C seksiyasi – Ishlab chiqaradigan sanoat;

G seksiyasi – Ulgurji va Chakana savdo;

H seksiyasi – Tashish va saqlash.

O'zbekiston Respublikasida Investitsiya sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C seksiya – Ishlab chiqaradigan sanoat	32 Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	32.1 Zargarlik buyumlari, bijuteriya va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish	32.12 Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish	32.12.0 Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish
2	G seksiyasi – Ulgurji va chakana savdo	46 Ulgurji savdo	46.1 Mukofot evaziga yoki shartnoma asosidagi ulgurji savdo	46.11 Qishloq xo'jalik xom ashyosi, tirik hayvonlar, to'qimachilik xom ashyosi va yarim fabrikatlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.11.0 Qishloq xo'jalik xom ashyosi, tirik hayvonlar, to'qimachilik xom ashyosi va yarim fabrikatlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.12 Yoqilg'i, rudalar, metallar va kimyoviy moddalar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.12.0 Yoqilg'i, rudalar, metallar va kimyoviy moddalar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.13 Yog'och va qurilish materiallari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.13.0 Yog'och va qurilish materiallari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.14 Mashinalar, uskunalar, sanoat uskunalari, suv kemalari va havo kemalari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.14.0 Mashinalar, uskunalar, sanoat uskunalari, suv kemalari va havo kemalari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati

				46.15 Mebel, maishiy tovarlar, temir-metall buyumlar va boshqa metall buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.15.0 Mebel, maishiy tovarlar, temir-metall buyumlar va boshqa metall buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.16 To'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, mo'ynali va charm buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.16.0 To'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, mo'ynali va charm buyumlar ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.17 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.17.0 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.18 Boshqa ayrim turdagi tovarlarning ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.18.0 Boshqa ayrim turdagi tovarlarning ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
				46.19 Ixtisoslashmagan ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati	46.19.0 Ixtisoslashmagan ulgurji savdosi bo'yicha agentlar faoliyati
			46.3 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi	46.31 Mevalar va sabzavotlar ulgurji savdosi	46.31.0 Mevalar va sabzavotlar ulgurji savdosi
				46.32 Go'sht, go'sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlarini ulgurji savdosi	46.32.0 Go'sht, go'sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlarini ulgurji savdosi

				46.33 Sut mahsulotlari, tuxum, ovqatga ishlatiladigan yog' va moylar ulgurji savdosi	46.33.0 Sut mahsulotlari, tuxum, ovqatga ishlatiladigan yog' va moylar ulgurji savdosi
				46.34 Ichimliklar ulgurji savdosi	46.34.1 Spirtli ichimliklar ulgurji savdosi
					46.34.2 Spirtsiz ichimliklar va pivoning ulgurji savdosi
				46.35 Tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi	46.35.0 Tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi
				46.36 Shakar, shokolad va shakarli qandolat mahsulotlari ulgurji savdosi	46.36.0 Shakar, shokolad va shakarli qandolat mahsulotlari ulgurji savdosi
				46.37 Qahva, choy, kakao va ziravorlar ulgurji savdosi	46.37.0 Qahva, choy, kakao va ziravorlar ulgurji savdosi
				46.38 Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ulgurji savdosi	46.38.0 Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ulgurji savdosi
				46.39 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan ulgurji savdosi	46.39.0 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan ulgurji savdosi
			46.4 Iste'mol uchun mo'ljallangan noziq-ovqat tovarlari ulgurji savdosi	46.41 To'qimachilik tovarlari ulgurji savdosi	46.41.0 To'qimachilik tovarlari ulgurji savdosi
				46.42 Kiyim va poyabzallar ulgurji savdosi	46.42.1 Kiyimlar ulgurji savdosi
					46.42.2 Poyabzallar ulgurji savdosi

				46.43 Maishiy elektr tovarlar ulgurji savdosi	46.43.1 Maishiy radio- va teleapparaturalar ulgurji savdosi
					46.43.9 Boshqa maishiy elektr tovarlar ulgurji savdosi
				46.44 Chinni buyumlar, shisha idishlar va tozalash vositalari ulgurji savdosi	46.44.0 Chinni buyumlar, shisha idishlar va tozalash vositalari ulgurji savdosi
				46.45 Parfyumeriya va pardozi tovarlari ulgurji savdosi	46.45.0 Parfyumeriya va pardozi tovarlari ulgurji savdosi
				46.46 Farmatsevtika va tibbiyot buyumlari ulgurji savdosi	46.46.0 Farmatsevtika va tibbiyot buyumlari ulgurji savdosi
				46.47 Maishiy, ofis va do'kon mebellari, gilamlar va yoritish uskunolari ulgurji savdosi	46.47.1 Maishiy, ofis va do'kon mebellari va gilamlar ulgurji savdosi
					46.47.2 Yoritish uskunolari ulgurji savdosi
				46.48 Soatlar va zargarlik buyumlari ulgurji savdosi	46.48.0 Soatlar va zargarlik buyumlari ulgurji savdosi
				46.49 Boshqa maishiy tovarlar ulgurji savdosi	46.49.0 Boshqa maishiy tovarlar ulgurji savdosi
			46.5 Axborot va kommunikatsiya uskunolari ulgurji savdosi	46.50 Axborot va kommunikatsiya uskunolari ulgurji savdosi	46.50.0 Axborot va kommunikatsiya uskunolari ulgurji savdosi
				46.61 Qishloq xo'jaligi texnikalari, uskunolari va ehtiyot qismlari ulgurji savdosi	46.61.0 Qishloq xo'jaligi texnikalari, uskunolari va ehtiyot qismlari ulgurji savdosi

			46.6 Boshqa texnika, uskunalar va ehtiyot qismlar ulgurji savdosi	46.62 Mexanik dastgohlar ulgurji savdosi	46.62.0 Mexanik dastgohlar ulgurji savdosi
				46.63 Tog'-kon sanoati va fuqarolik qurilishi uchun texnikalar ulgurji savdosi	46.63.0 Tog'-kon sanoati va fuqarolik qurilishi uchun texnikalar ulgurji savdosi
				46.64 Boshqa texnika va uskunalar ulgurji savdosi	46.64.0 Boshqa texnika va uskunalar ulgurji savdosi
			46.7 Motorli transport vositalari, mototsikllar va ularning detallari, uzellari va jihozlari ulgurji savdosi	46.71 Motorli transport vositalarining ulgurji savdosi	46.71.0 Motorli transport vositalarining ulgurji savdosi
				46.72 Motorli transport vositalarining detallari, uzellari va jihozlari ulgurji savdosi	46.72.0 Motorli transport vositalarining detallari, uzellari va jihozlari ulgurji savdosi
				46.73 Mototsikllar va mototsikllarning detallari, uzellari va jihozlari ulgurji savdosi	46.73.0 Mototsikllar va mototsikllarning detallari, uzellari va jihozlari ulgurji savdosi
			46.8 Boshqa ixtisoslashgan ulgurji savdo	46.81 Qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'i va shu kabi mahsulotlar ulgurji savdosi	46.81.0 Qattiq, suyuq va gazsimon yoqilg'i va shu kabi mahsulotlar ulgurji savdosi
				46.82 Metall va metall rudalari ulgurji savdosi	46.82.0 Metall va metall rudalari ulgurji savdosi
				46.83 Yog'och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi	46.83.0 Yog'och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi

				46.84 Metall buyumlar, suv quvurlari va isitish uskunalari va inventarlari ulgurji savdosi	46.84.0 Metall buyumlar, suv quvurlari va isitish uskunalari va inventarlari ulgurji savdosi
				46.85 Kimyoviy mahsulotlar ulgurji savdosi	46.85.0 Kimyoviy mahsulotlar ulgurji savdosi
				46.86 Boshqa oraliq mahsulotlar ulgurji savdosi	46.86.0 Boshqa oraliq mahsulotlar ulgurji savdosi
				46.87 Chiqindi va siniq parchalar ulgurji savdosi	46.87.0 Chiqindi va siniq parchalar ulgurji savdosi
				46.89 Boshqa toifalarga kiritilmagan ixtisoslashgan ulgurji savdo	46.89.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ixtisoslashgan ulgurji savdo
			46.9 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	46.90 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	46.90.0 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo
		47 Chakana savdo	47.1 Ixtisoslashmagan chakana savdo	47.11 Asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan chakana savdosi	47.11.0 Asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan chakana savdosi
				47.12 Boshqa ixtisoslashmagan chakana savdo	47.12.0 Boshqa ixtisoslashmagan chakana savdo
			47.2 Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari	47.21 Mevalar va sabzavotlar chakana savdosi	47.21.0 Mevalar va sabzavotlar chakana savdosi
				47.22 Go'sht va go'sht mahsulotlari chakana savdosi	47.22.0 Go'sht va go'sht mahsulotlari chakana savdosi

			chakana savdosi	47.23 Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar chakana savdosi	47.23.0 Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar chakana savdosi
				47.24 Non va qandolat mahsulotlari chakana savdosi	47.24.0 Non va qandolat mahsulotlari chakana savdosi
				47.25 Ichimliklar chakana savdosi	47.25.1 Spirtli ichimliklar chakana savdosi
					47.25.2 Spirtsiz ichimliklar va pivoning chakana savdosi
				47.26 Tamaki mahsulotlari chakana savdosi	47.26 Tamaki mahsulotlari chakana savdosi
				47.27 Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	47.27 Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi
			47.3 Motor yoqilg'isi chakana savdosi	47.30 Motor yoqilg'isi chakana savdosi	47.30.0 Motor yoqilg'isi chakana savdosi
			47.4 Axborot va telekommunikatsiya uskunalari chakana savdosi	47.40 Axborot va telekommunikatsiya uskunalari chakana savdosi	47.40.0 Axborot va telekommunikatsiya uskunalari chakana savdosi
			47.5 Uy uchun kerakli boshqa uskunalar chakana savdosi	47.51 To'qimachilik buyumlari chakana savdosi	47.51.0 To'qimachilik buyumlari chakana savdosi
				47.52 Mayda-chuyda metall buyumlar, qurilish materiallari, lok-bo'yoq mahsulotlari va shishalar chakana savdosi	47.52.0 Mayda-chuyda metall buyumlar, qurilish materiallari, lok-bo'yoq mahsulotlari va shishalar chakana savdosi
				47.53 Gilamlar, devor va pol qoplamalari chakana savdosi	47.53.1 Gilamlar va gilam mahsulotlari chakana savdosi
					47.53.9 Boshqa devor va pol qoplamalari chakana savdosi

				47.54 Maishiy elektr tovarlari chakana savdosi	47.54.9 Maishiy elektr tovarlari chakana savdosi
				47.55 Mebel, yoritish uskunalari, oshxona anjomlari va boshqa maishiy jihozlar chakana savdosi	47.55.1 Mebellar chakana savdosi
					47.55.9 Yoritish uskunalari, oshxona anjomlari va boshqa maishiy jihozlar chakana savdosi
				47.61 Kitoblar chakana savdosi	47.61.0 Kitoblar chakana savdosi
			47.6 Madaniy hordiq, sport va dam olish uchun tovarlar chakana savdosi	47.62 Gazeta va boshqa davriy nashrlar hamda kanselyariya tovarlari chakana savdosi	47.62.0 Gazeta va boshqa davriy nashrlar hamda kanselyariya tovarlari chakana savdosi
				47.63 Sport tovarlari chakana savdosi	47.63.0 Sport tovarlari chakana savdosi
				47.64 O'yin va o'yinchoqlar chakana savdosi	47.64.0 O'yin va o'yinchoqlar chakana savdosi
				47.69 Boshqa toifalarga kiritilmagan madaniy hordiq, sport va dam olish uchun tovarlar chakana savdosi	47.69.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan madaniy hordiq, sport va dam olish uchun tovarlar chakana savdosi
			47.7 Avtomobillar va mototsikllardan tashqari boshqa tovarlar chakana savdosi	47.71 Kiyimlar chakana savdosi	47.71.1 Trikotaj va paypoq buyumlari chakana savdosi
					47.71.2 Kiyimlar chakana savdosi (trikotaj va paypoq buyumlaridan tashqari)
				47.72 Poyabzal va charm buyumlar chakana savdosi	47.72.1 Poyabzal chakana savdosi
					47.72.2 Charm buyumlar chakana savdosi

				47.73 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	47.73.0 Farmatsevtika tovarlari chakana savdosi
				47.74 Tibbiyot va ortopedik tovarlar chakana savdosi	47.74.0 Tibbiyot va ortopedik tovarlar chakana savdosi
				47.75 Pardozi tovarlari va gigiyena predmetlari chakana savdosi	47.75.0 Pardozi tovarlari va gigiyena predmetlari chakana savdosi
				47.76 Gullar va boshqa o'simliklar, o'g'itlar, uy hayvonlari va ular uchun ozuqalar chakana savdosi	47.76.0 Gullar va boshqa o'simliklar, o'g'itlar, uy hayvonlari va ular uchun ozuqalar chakana savdosi
				47.77 Soatlar va zargarlik buyumlari chakana savdosi	47.77.0 Soatlar va zargarlik buyumlari chakana savdosi
				47.78 Boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	47.78.0 Boshqa yangi tovarlar chakana savdosi
				47.79 Ilgari iste'molda bo'lgan tovarlar chakana savdosi	47.79.0 Ilgari iste'molda bo'lgan tovarlar chakana savdosi
			47.8 Avtomobillar, mototsikllar va ularning detallari, uzellari va jihozlari chakana savdosi	47.81 Avtomobillar chakana savdosi	47.81.0 Avtomobillar chakana savdosi
				47.82 Avtomobil detallari, uzellari va jihozlari chakana savdosi	47.82.0 Avtomobil detallari, uzellari va jihozlari chakana savdosi
				47.83 Mototsikllar, mototsikllarning detallari, uzellari va jihozlari chakana savdosi	47.83.0 Mototsikllar, mototsikllarning detallari, uzellari va jihozlari chakana savdosi
			47.9 Chakana savdo sohasida vositachilik xizmati faoliyati	47.91 Ixtisoslashgan bo'lmagan chakana savdo sohasida vositachilik xizmati faoliyati	47.91.0 Ixtisoslashgan bo'lmagan chakana savdo sohasida vositachilik xizmati faoliyati
				47.92 Ixtisoslashgan chakana savdo	47.92.0 Ixtisoslashgan

				sohasida vositachilik xizmati faoliyati	chakana savdo sohasida vositachilik xizmati faoliyati
3	H seksiyasi – Tashish va saqlash	52 Omborga joylashtirish, saqlash va yordamchi transport faoliyati	52.2 Transport-da tashish bo'yicha yordamchi faoliyat	52.25 Logistika xizmati faoliyati	52.25.0 Logistika xizmati faoliyati

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13241	Tovarlarni yetkazib berish, tarqatish va shunga o'xshash faoliyat bo'yicha xizmatlar rahbarlari
2.	21415	Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha muhandislar
3.	24311	Marketing va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar
4.	24321	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha professional-mutaxassislar
5.	24334	Boshqa ixtisoslashgan mahsulotlarni sotish bo'yicha professional-mutaxassislar, b.g.k.
6.	33113	Tovar birjasi brokeri
7.	33220	Tijorat va savdo ishlari bo'yicha agentlar
8.	33231	Xaridlar bo'yicha agentlar
9.	33310	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassislar va ekspeditorlar
10.	52210	Kiosklar va pavilyonlardagi sotuvchilar
11.	52220	Do'konlardagi katta sotuvchilar
12.	73131	Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ishchilar
13.	73132	Qimmatbaho toshlar va olmoslarga ishlov berish bilan shug'ullanadigan ishchilar
14.	96210	Kuryerlar, yuk tashuvchilar, shveysarlar va boshqa shu kabi ishchilar

3. Savdo sohasi tarmoq tahlili

Savdo faoliyati (savdo) – tovarlarni oldi-sotdi qilish va xaridorlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati turi hisoblanadi. Bu sohaga mamlakatning deyarli barcha aholisi jalb qilingan bo'lib, har bir kishi yo sotuvchi, yo xaridor sifatida qatnashadi. Savdoning asosiy vazifasi iste'molchining talabini qondirish, ya'ni muayyan xususiyat va sifatga ega bo'lgan tovarni belgilangan joyda, ma'lum vaqtda va kelishilgan narxda taqdim etishdan iborat.

Savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish turli qonuniy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-

yildagi 19-iyundagi “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5087-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3068-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktyabrdagi “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5564-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 196-son qarori bilan amalga oshiriladi. Mazkur qonun hujjatlari O‘zbekistonda yagona iqtisodiy makonni ta‘minlashni maqsad qilib, savdo faoliyatining rivojlanishiga ko‘maklashadi hamda savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlaydi.

O‘zbekistonda biznes subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda nizolarni hakamlilik sudlarida hal qilish mexanizmining joriy etilgani alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida so‘ngi 2-3 yilda ulgurji savdo korxonalari va firmalari soni keskin ortib bormoqda. Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo korxona va tashkilotlari soni 50 mingga yaqinlashdi. 2021-yilda O‘zbekiston ulgurji savdo korxona va tashkilotlarining ulgurji tovar aylanmasi 172790,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 238614,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Respublikaning ayrim viloyatlarida so‘ngi 2-3 yilda ulgurji savdo aylanmasi keskin o‘sd. Jumladan, Navoiy, Jizzax va Xorazm viloyatlarida erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat hududlarini tashkil etilishi natijasida ulgurji savdo faoliyati rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Lekin iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ulgurji savdo kompaniyalari soni, tashkiliy tuzilmalari, ulgurji savdo aylanmasiga nisbatan mamlakatimiz iqtisodiyotida ulgurji savdoning salmog‘i past darajada qolmoqda. Iqtisodiyotning muhim sektori bo‘lgan ulgurji savdoni mamlakatimizda yanada rivojlantirish bo‘yicha ulkan imkoniyatlar mavjud.

Savdo bozor munosabatlarining asosiy tashkilotchisi bo‘lib, tijorat operatsiyalarini amalga oshirilishini ta‘minlaydigan katalizator hisoblanadi. Savdoning muhim shakli ulgurji savdo texnik-ishlab chiqarish maqsadlarga mo‘ljallangan mahsulotlar (ishlab chiqarish vositalari) bozori va iste‘mol bozorida talab hamda taklif muvozanatini ta‘minlashda muhim faoliyat hisoblanadi. Shu sababli hozirgi kunda savdo sohasida yetuk, mehnat bozorida raqobatbardosh

mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borish yuzasidan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

1. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga ko'paydi.

2023-yil davomida eksport 23,8 foizga — 24,4 mlrd dollargacha, import 24 foizga — 30,1 mlrd dollargacha oshdi. Tashqi savdo taqchilligi 13,7 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etdi.

Donli ekinlar va undan tayyorlangan mahsulotlar eksporti 478,8 mln dollargacha, qahva, choy, kakao eksporti hajmi 27,6 mln dollargacha, ichimliklar 60,1 mln dollargacha, neft va neft mahsulotlari 333 mln dollargacha, noorganik kimyoviy moddalar 497,5 mln dollargacha, cho'yan va po'lat — 185,9 mln dollargacha, metall buyumlar 130,2 mln dollargacha, charm mahsulotlari eksporti esa 41,3 mln dollargacha oshdi.

2024-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 66 mlrd. dollarga yetdi. Eksport hajmi 8,4% ga, Rossiya bilan savdo hajmi 14,5% ga oshdi. Dekabr oyida O'zbekiston 854 mln. dollarlik oltin sotdi.

Ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 3,8%ga oshgan. Bunga eksportning sezilarli o'sishi (26,94 mlrd, dollar +8,4%), shuningdek, importning oshishi (38,98 mlrd, dollar +0,8%) sabab bo'ldi. Salbiy saldo 12,03 mlrd. dollargacha kamaydi (2023-yil—13,7 mlrd. dollar).

Xorijga avtomobillar yetkazib berish hajmi 127,5 mln dollarni tashkil etdi. Shuningdek, avtomobillar uchun ehtiyot qismlar yetkazib berish hajmi 366,3 mln dollarni, elektrik mashina va qurilmalar 227,7 mln dollarni, energogenerator uskunolari va mashinalar 175,5 mln dollarni, elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari 118 mln dollarni, boshqa transport vositalarini yetkazib berish hajmi esa 100,1 mln dollardan iborat bo'ldi.

Gaz eksporti qariyb 2 baravarga — 529,9 mln dollargacha, elektr energiyasi eksporti esa 76,6 mln dollargacha, o'g'itlar 336,3 mln dollargacha, rangli metallar 1,38 mlrd dollargacha, tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari 37,9 million dollargacha, to'qimachilik mahsulotlari sotuvi esa 3,05 mlrd dollargacha pasaydi.


2023-yil yakuni bo'yicha xizmatlar eksporti hajmi 5,8 mlrd dollarni yoki umumiy savdo eksporti hajmining 21,2 foizini tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 16,2 foizga oshdi. Xizmatlar eksportidagi asosiy ulush transport (43,2 foiz), sayohat (turizm, 41,4 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,5 foiz) va boshqa tadbirkorlik xizmatlariga (3,1 foiz) to'g'ri keladi egallaydi.

O'zbekistonga sanoat mahsulotlari yetkazib berish hajmi 6,3 mlrd dollarga yetdi. Asosiy hajm Rossiya (2,17 mlrd dollar) va Xitoy (1,95 mlrd dollar),

shuningdek, Qozog'iston (715,2 mln dollar), Turkiya (353,6 mln dollar) va Janubiy Koreya (209,6 mln dollar) ulushiga to'g'ri keladi.

Sanoat mahsulotlari importi: asosiy hamkor davlatlar (2025):

O'zbekistonga sanoat mahsulotlari yetkazib berish (mlrd dollar, 2025)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4001-sonli qarori asosida Toshkent xalqaro arbitraj markazi tashkil etilgan.

O'zbekistonda savdo sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bir nechta yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlaydi. Quyida asosiy OTMLar va ularning tegishli fakultetlari keltirilgan:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU):

Savdo va marketing fakulteti;

Iqtisodiyot yo'nalishida ham savdo bilan bog'liq mutaxassisliklar mavjud.

2. Toshkent moliya instituti:

Bojxona ishi va tashqi iqtisodiy faoliyat;

Moliya va marketing kabi yo'nalishlar orqali savdo sohasidagi bilimlar beriladi.

3. Toshkent davlat texnika universiteti:

Injener-iqtisodchi mutaxassisliklari doirasida sanoat va texnologiyalar bilan bog'liq savdo yo'nalishlari.

4. Toshkent xalqaro iqtisodiyot va diplomatiya universiteti (TIEDU):

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar;

Xalqaro biznes va savdo yo'nalishlari.

5. Universitetlar qoshidagi biznes maktablar va kollejlari:

Ba'zi universitetlar qoshidagi biznes maktablar (masalan, Tashkent Management Development Institute) savdo, biznes va marketing sohasida mutaxassislar tayyorlaydi.

Savdo sohasi bo'yicha xorijda kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari (OTMLar) ko'p va har xil yo'nalishlarda mutaxassisliklar taklif qilishadi — jumladan,

soha uchun dolzarb hisoblangan marketing, xalqaro savdo, logistika, supply chain management, e-commerce va boshqalar.

Quyidagi OTMLar ushbu sohada yetakchi hisoblanadi:

1. Harvard Business School (AQSH):

Yo'nalishlar: Business Administration, Marketing, Strategic Management
Eng nufuzli biznes maktablardan biri.

2. London School of Economics and Political Science (LSE) — Buyuk Britaniya:

Yo'nalishlar: International Business, Economics, Management;

Xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlar sohasida yetakchi.

3. Rotterdam School of Management, Erasmus University (Niderlandiya):

Yo'nalishlar: International Business, Supply Chain Management, Marketing.

4. University of St. Gallen (Shveysariya):

Yo'nalishlar: International Affairs, Business Administration, Trade and Economics.

5. ESCP Business School (Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya):

Yo'nalishlar: International Sales, Marketing, Digital Business

6. National University of Singapore (NUS):

Yo'nalishlar: Business Administration, International Trade, Logistics

O'zbekistonda savdo sohasi — mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, bu sohaga bo'lgan ishchi kuchi ehtiyoji yil sayin ortib bormoqda. Quyida ushbu ehtiyojga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va talab etilayotgan mutaxassisliklar haqida ma'lumot:

1. Savdo sohasidagi o'sish sabablari:

Ichki bozor rivojlanishi: Xususiy sektor kengayishi, chakana savdo markazlari va supermarketlar soni ko'paymoqda.

Tashqi savdo faoliyatining kengayishi: O'zbekiston eksport-import faoliyatini kengaytirmoqda, bu esa logistika, eksport boshqaruvi, bojxona ishi bo'yicha kadrlarga talabni oshiradi.

Raqamli savdo va elektron kommersiyaning ommalashishi — bu yo'nalishda IT va marketing sohasidagi mutaxassislar kerak.

2. Eng talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar:

Savdo menejeri / Savdo vakili;

Marketing mutaxassisi (shu jumladan, raqamli marketing);

Eksport-import bo'yicha mutaxassis;

Logistika va yetkazib berish menejeri va x.k.

3. Statistik ma'lumotlar (taxminiy):

Yaqin yillarda chakana savdo sohasida kamida 50–70 ming yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Tashqi savdo va logistika sohalarida yuqori malakali mutaxassislarga bozorda katta talab bor, ayniqsa, xalqaro sertifikatga ega bo'lganlarga.

O'zbekistonda savdo aylanmasini ko'paytirish, sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'ini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishni, mahalliy mineral-xomashyolarni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulotlar hajmini oshirishga qaratilayotgan e'tibordan kelib chiqib, xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulgurji savdo operatsiyalari bilan shug'ullanadigan, jumladan, rangli va qimmatbaho metallar, kimyoviy va uglevodorod kabi xom ashyolar ulgurji savdosi bilan shug'ullanadigan ulgurji kooperativ tashkilotlarini tashkil etish.

2. Iqtisodiy erkin zonalar, kichik sanoat zonolari, yirik sanoat hududlarida ulgurji-taqsimot markazlarini tashkil etish. Bunday markazlarda ichki va tashqi bozorlarda faoliyat yuritadigan ulgurji savdo tashkilotlari va korxonalari sonini oshirish.

3. Yirik sanoat korxonalarining ulgurji savdo bo'linmalarini tashkil etish. Ularning ichki va tashqi bozorlardagi savdo vakillik idoralarini, savdo markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Zargarlik sohasi tarmoq tahlili

"Zargarlik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-303-sonli prezident qarori qabul qilindi.

Qarordan ko'zlangan maqsad, zargarlik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama ko'maklashish hamda aholining yuqori sifatli mahalliy zargarlik buyumlariga bo'lgan talabini qondirish etib belgilandi.

2026-yil 1-fevraldan boshlab chegirmalardan foydalanadigan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini shakllantirishda quyidagi qo'shimcha mezonlar inobatga olinadi:

- yaratilgan yangi ish o'rinlariga ishga qabul qilingan zargarlar bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilgani va ularga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining to'rt baravaridan kam bo'lmagan miqdorda ish haqi hisoblangani hamda ushbu holat soliq organlari tomonidan tasdiqlangani;

- zargarlik markazlarida kamida bir oy davomida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyekti bo'lishi.

Bugungi kunda Respublika bo'yicha zargarlik buyumlari ishlab chiqarish sohasida 92 yuridik shaxs va 223 yakka tartibdagi tadbirkor faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda zargarlik sanoatiga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilib, sohaga doir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Tizimni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Xususan, xom-ashyoni erkin sotib olish bo'yicha qulayliklar yaratildi. Xom ashyo va tayyor mahsulot qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi. 2023-yil martga qadar qimmatbaho toshlar olib kirish uchun bojxona to'lovi olib tashlandi.

Zargarlik bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatida uchrayotgan muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, tizimda bilim va ko'nikmaga ega yetuk malakali kadrlar yetishmaydi. Xorijdan mutaxassis olib kelib, ishlatish ancha qimmatga tushadi. Bu masalani hal etishda rivojlangan xorijiy davlatlarning mohir zargar ustalarini jalb etgan holda o'zbek zargarlari tajribasini oshirish, ularga sohaga oid zamonaviy bilimlarni o'rgatish, shu yo'nalishda o'quv kurslari, mahorat maktablari tashkil etish orqali yuqori natijaga erishish mumkinligi qayd etildi.

Umuman, yurtimizda zargarlik sohasini mahalliy sanoat tarmog'i sifatida iqtisodiyotning drayver yo'nalishlaridan biriga aylantirish maqsadida qator ishlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, zargarlarga tovar-xom ashyo birjasi orqali 360 kunga kechiktirib to'lash shartini tatbiq etish, kafolatni boshqa tijorat banklari orqali amalga oshirishga ruxsat berish, bank kafolatini yakka tartibdagi tadbirkorlarga taqdim etish, qimmatbaho metallni metall ko'rinishida qaytarish imkonini yaratish kerak. Qayta ishlash uchun respublika hududiga olib kirish hamda eksport qilishda qimmatbaho metallar eksporti va importi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi litsenziya rasmiylashtirish talabini bekor qilish muhim. Zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarga asbob-uskunani lizing sharti asosida berish amaliyotini yo'lga qo'yish, "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish lozim.

"O'zbekzargarsanoati" uyushmasida 30 dan ziyod zargar a'zo – 200 dan ortiq zargarlik yo'nalishidagi mas'uliyati cheklangan jamiyat bor. Shuningdek, 300 dan ko'proq yakka tartibdagi tadbirkor zargarlik faoliyatini amalga oshirmoqda. Har bir YATT 5-10 nafar yoshga "ustoz-shogird" an'anasiga muvofiq, hunar o'rgatib, bandlikni ta'minlamoqda. Eng kichik korxonalarda o'nlab, yiriklarida 150 nafardan ziyod fuqaro ishlaydi. Zargarlik sanoati nafaqat poytaxtda, balki hududlarda ham, masalan, Xorazm, Andijon, Namangan viloyatlarida keng rivojlanyapti. Hozirgi kunda zargarlik mahsulotlari, asosan, AQSH, Kanada, Turkiyaga eksport qilinaypti.

Tadbirkorlar tomonidan qimmatbaho metall va toshdan ishlangan zargarlik buyumlarini boshqa davlatlarga sotishda uchrayotgan muammolar, ya'ni logistika narxi yuqoriligi ta'kidlandi. Shuningdek, davlatdan tilla sotib olish jarayonini yengillashtirish masalasi ham ko'tarildi.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1	11200045	Vakolatxona rahbari (mudiri) va o'rinbosarlari
2	12111008	Investitsiya loyihalari bo'yicha direktor
3	12210009	Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
4	13230023	Xo'jalik (uy-joy kommunal, reagent, ombor va boshqalar) boshlig'i
5	13241007	Logistika bo'yicha menejer (logistik)

6	14200006	Savdo bo'limi boshlig'i
7	24321001	Brend-menejer
8	24334006	Tovarshunos
9	33113003	Indent-agent
10	33220003	Konsignator
11	33220008	Tijorat agenti
12	33231001	Merchendayzer
13	33231004	Xaridlar bo'yicha agent
14	33231008	Yetkazib berish bo'yicha vakil
15	33310001	Savdo-tijorat agenti
16	33410012	Ma'muriy xizmat menejeri
17	34120005	Supervayzer
18	52210001	Chakana savdo korxonasi sotuvchisi
19	52220001	Maslahatchi-savdogar
20	52220004	Ulgurji savdo korxonasi sotuvchisi
21	73131001	Qimmatbaho metalli buyumlarni o'rnatuvchi
22	73131003	Zargar (zargar-modelyer)
23	73131004	Zargar-bilakuzukchi
24	73131006	Zargarlik buyumlar bo'yicha usta
25	73131002	Zargar (umumiy yo'nalish)
26	73131014	Zargar-zanjir yasovchi
27	73132007	Olmos va o'ta qattiq materiallarni silliqlovchi
28	73132010	Olmoslarni kesuvchi
29	73132012	Olmoslarni xillovchi (olmos ishlab chiqarishda, badiiy buyumlar)
30	73132013	Olmosni qirralab brilliantga aylantiruvchi
31	73132015	Olmosni tozalovchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	4	19	2025-yil, dekabr
2.	2	7	2026-yil, dekabr

6. Tarmoq malakalar ramkasi malaka darajalarining tavsifi*

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	Savdo sohasida elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar; Savdo sohasining umumiy tushunchalari, mahsulot va xizmatlarning asosiy turlari savdo nuqtasida mehnat xavfsizligi va sanitariya qoidalari, ichki tartib-qoidalar va xizmat ko'rsatish etikasi, oddiy hisob-kitob va narx tushunchalari	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish; Xaridorlarni odob bilan kutib olish, mahsulot haqida oddiy ma'lumot berish, savdo jarayonida rahbar ko'rsatmalarini bajarish, savdo joyini tartibga keltirish, oddiy savdo amaliyotlarini bajarish	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash	
2	2	Savdo sohasida umumiy amaliy bilimlar; Savdo jarayonining asosiy bosqichlari, mahsulot assortimentini bilish, narxlash va chegirmalar asoslari, xaridorlar bilan muloqot qoidalari, iste'molchi huquqlari bo'yicha boshlang'ich bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish; Xaridorga maslahat berish, savdo hujjatlari (chek, buyurtma) bilan ishlash, oddiy savdo hisobotlarini yuritish, nizoli vaziyatlarni oddiy darajada hal qilish, savdo standartlariga rioya qilish	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	

3	3.1	Ichki savdo tartib-qoidalari, sotiladigan mahsulotlarga oid davlat va tashkilot standartlari, korxonalar faoliyati qoidalari, aholining xarid qilish psixologiyasi, taklif etilayotgan mahsulotlar haqidagi bilimlar; ishbilarmonlik axloqi asoslari, mehnatni muhofaza qilish talablari to'g'risidagi bilimlar	Standart amaliy topshiriqlarni bajarish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalarini namoyish qilish. Berilgan vazifalarni bajarish usulini mustaqil ravishda aniqlash.	Qattiq nazorat ostida, belgilangan chegarada ishlash, o'z ishi uchun qisman javobgarlik	47.92 Ixtisoslashgan chakana savdo sohasida 33231001 Merchandayzer
	3.2	Qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallar hamda toshlarning turlari, xossalari va qo'llanilishi; Zargarlik ishlab chiqarish texnologiyalari (quyma, qirqish, jilvirlash, payvandlash, sayqallash va boshqalar); Asbob-uskunalarining tuzilishi, ishlash tamoyili va texnik xavfsizlik qoidalari; Dizayn, chizmachilik va 3D-modellashtirish asoslari; Mehnat muhofazasi, sanitariya va ekologik me'yorlar; Sifatni nazorat qilish standartlari va sertifikatlashtirish talablari (O'z DST, ISO).	Zargarlik buyumlarini loyihalash va eskizlar tayyorlash; Metall va toshlarni o'lchash, tanlash, qayta ishlash va yig'ish; Mexanik, kimyoviy va termik ishlov berish jarayonlarini bajarish; Buyumlarni jilvirlash, sayqallash va bezash; Ishlab chiqarish uskunalarini sozlash va texnik xizmat ko'rsatish; Tayyor mahsulot sifatini baholash va kamchiliklarni bartaraf etish.	Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati uchun javob beradi; Xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar hisobini to'g'ri yuritadi; Ish joyida texnika xavfsizligi va sanitariya talablariga rioya qiladi; Ishlab chiqarish intizomi va mehnat tartib-qoidalari amal qiladi; Jamoaviy faoliyatda o'z vazifalarini vijdonan bajaradi. Texnologik jarayonlarni mustaqil rejalashtira oladi; Dizayn va ishlab	32.12 Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish 73131001 Qimmatbaho metalli buyumlarni o'rnatuvchi 73131002 Zargar (umumiy yo'nalish) 73131003 Zargar (zargar-modelyer) 73131004 Zargar-bilakuzukchi 73131006 Zargarlik buyumlar bo'yicha usta 73131014 Zargar-zanjir yasovchi 73132007 Olmos va o'ta qattiq materiallarni silliqlovchi

				chiqarish bo'yicha takliflar kiritadi;	73132010 Olmoslarni kesuvchi 73132012 Olmoslarni xillovchi (olmos ishlab chiqarishda, badiiy buyumlar) 73132013-Olmosni qirralab brilliantga aylantiruvchi 73132015-Olmosni tozalovchi
4	4	- Chakana savdo jarayonlari va xizmat ko'rsatish madaniyati asoslari, tovarshunoslik: tovarlarning sifati, turlari, saqlash va tashish shartlari, savdo texnologiyalari va kassaviy hisob-kitob tartibi, narx belgilash va chegirma siyosati asoslari, Mijozlar bilan muloqot psixologiyasi va etika qoidalari, Mehnat muhofazasi, sanitariya va yong'in xavfsizligi qoidalari. - Savdo psixologiyasi va marketing asoslari, tovarlar assortimenti, sifati va funksional xususiyatlari, muloqot madaniyati va mijoz bilan ishlash texnologiyalari,	— Tovarlarini joylashtirish, markalash va reklama usullarini qo'llash, xaridor bilan muloqot olib borish, tovar tanlashda yordam berish, savdo amaliyotlarini bajarish, kassada to'lovni qabul qilish, tovarlarni hisobga olish, qayd etish va inventarizatsiyada ishtirok etish, ish joyida tozalik va tartibni ta'minlash. — Xaridor ehtiyojini aniqlash va tahlil qilish, tovar yoki xizmat afzalliklarini taqdim etish, ishonchli muloqot va muzokara olib borish, savdo bitimlarini rasmiylashtirish va hisob-kitobni yuritish,	-Xaridorga xizmat ko'rsatish sifati va tovarning to'g'ri berilishi uchun javob beradi, kassa operatsiyalarini aniq yuritadi, tovar saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar, ichki tartib va etik qoidalarga amal qiladi. -Kundalik savdo jarayonini mustaqil tashkil etadi, xaridorlarga mos mahsulotni tanlashda mustaqil qaror qabul qiladi, oddiy savdo muammolarini mustaqil hal etadi, ish vaqtini ratsional rejalashtiradi.	47.12 Boshqa ixtisoslashmagan chakana savdo 52210001 Chakana savdo korxonasi sotuvchisi 52220001 Maslahatchi-savdogar 46.90 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo 52220004 Ugurji savdo korxonasi sotuvchisi

		savdo va reklama strategiyalari, kassa, hisob-kitob va hujjatlashtirish tartibi, korxona ichki reglamenti va xizmat standartlari, - Ulgurji savdo jarayonlari va biznes muzokaralar asoslari, tovarshunoslik va logistika, narx siyosati, shartnoma tuzish va hujjatlashtirish tartibi, savdo hisobotlari va elektron hisob-kitob tizimlari, mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish tamoyillari, tijorat sirini saqlash va axborot xavfsizligi me'yorlari.	mijoz bazasini yuritish va qayta aloqa o'rnatish. — Buyurtmalarni qabul qilish va tahlil qilish, shartnomalar tuzish va hujjatlarni rasmiylashtirish, yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan muzokara olib borish, tovarlarni ombor va transport jarayonida nazorat qilish, savdo statistikasi va hisobotlarni yuritish.	-Xaridor bilan munosabatda korxona imijini saqlash, sotilgan mahsulot sifati va to'g'ri axborot berilishi uchun javob beradi, savdo natijalari va mijozlar qoniqish darajasi uchun mas'ul, axborot maxfiyligi va etik me'yorlarga rioya qiladi. -Mijoz ehtiyojiga mos takliflarni mustaqil ishlab chiqadi, savdo strategiyasini mustaqil rejalashtiradi, muzokara jarayonida mustaqil qaror qabul qiladi, Ish faoliyatida tashabbuskorlik va innovatsion yondashuv ko'rsatadi. - Tovar yetkazib berishning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun javobgar, tijorat bitimlari va moliyaviy hujjatlarning to'g'ri yuritilishi uchun javob beradi, korxona manfaatlarini himoya	
--	--	--	--	---	--

				qiladi, tashkiliy intizom va shartnoma majburiyatlariga rioya qiladi. - Savdo bitimlarini tayyorlash va muzokaralarni mustaqil olib boradi, xaridorlar bilan hamkorlik strategiyasini mustaqil ishlab chiqadi, ish natijalari va savdo hajmini oshirish bo'yicha tashabbus ko'rsatadi, ish jarayonida qaror qabul qilishda yuqori darajada mas'uliyat ko'rsatadi.	
5	5	Savdo faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, ulgurji va chakana savdo turlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari, tovarshunoslik, assortiment, narx belgilash va chegirma siyosati, savdo jarayonida qo'llaniladigan hisob-kitob usullari (naqd, naqdsiz, terminal orqali va b.), mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyati va etikasi, ombor xo'jaligi, hisob va	Tovarlarni qabul qilish, saqlash va joylashtirishni tashkil etish, savdo joyini tayyorlash, vitrinalarni to'g'ri joylashtirish, xaridorlarga maslahat berish va ularga mos tovarni tanlashda yordam ko'rsatish, kassaviy apparatlar, skaner, terminallar bilan ishlash, savdo hujjatlarini to'ldirish va hisob yuritish, tovarlar miqdori, sifati va saqlash	— Tovarlarni sifatli, to'g'ri miqdorda va muddatida yetkazilishini ta'minlash, savdo jarayonining qonunchilik va ichki tartib qoidalariga muvofiqligini saqlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyati va etik me'yorlarga rioya etish, tovar-moddiy boyliklar uchun moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish,	46.90 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo 33113003 Indent-agent 33220008 Tijorat agenti 33231004 Xaridlar bo'yicha agent 33231008 Yetkazib berish bo'yicha vakil 33310001 Savdo-tijorat agenti 33410012 Ma'muriy xizmat menejeri 34120005 Supervayzer 33220003 Konsignor

		inventarizatsiya tartibi, reklama va marketingning asosiy tamoyillari, mehnat xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va sanitariya qoidalari, axborot texnologiyalaridan (POS-terminal, kassaviy dasturlar, ombor tizimlari) foydalanish asoslari.	muddatini nazorat qilish, shikoyatlar bilan ishlash va mijozlar muammosini hal qilish, sotuv hajmini oshirishga qaratilgan takliflar berish, bozor talabini tahlil qilish va assortimentni optimallashtirish.	moliyaviy hisobot va kassa intizomiga rioya etish, sanitariya-gigiyena, mehnat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilish. - Ish jarayonini mustaqil tashkil etadi va o'z faoliyatini rejalashtiradi, mijozlar bilan muloqotda mustaqil qarorlar qabul qiladi, ishdagi muammolarni hal etishda tashabbus ko'rsatadi, rahbarlik nazoratisiz oddiy savdo muomalalarini mustaqil bajaradi, jamoa bilan hamkorlikda ishlaydi, yangi xodimlarga yo'l-yo'riq beradi, savdo natijalariga nisbatan shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.	
--	--	---	--	---	--

6	6	- Savdo va marketing siyosatini shakllantirish tamoyillari, ulgurji va chakana savdo tarmoqlarining iqtisodiy asoslari va boshqaruv mexanizmlari, bozor konyunkturasi, raqobat muhiti va iste'molchilar xulqini tahlil qilish usullari, narx belgilash, rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini hisoblash asoslari, ombor va logistika jarayonlarini boshqarish, ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlar, savdo balanslari va xarajat tahlili tamoyillari, xodimlar faoliyatini rejalashtirish, boshqarish va rag'batlantirish mexanizmlari, axborot texnologiyalaridan (CRM, ERP, 1C, POS tizimlari) foydalanish ko'nikmalari, savdo faoliyatini tartibga soluvchi mehnat, soliq va iste'molchi huquqlariga oid qonunchilik asoslari.	- Ulgurji va chakana savdo jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish, bozor tahliliga asoslanib savdo strategiyasini ishlab chiqish, tovar aylanmasi, zaxiralar va foyda ko'rsatkichlarini nazorat qilish, yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish, muzokaralar olib borish, tovarlar assortimentini shakllantirish va marketing tadbirlarini rejalashtirish, savdo jamoasini boshqarish, ish unumdorligini baholash va motivatsiya tizimini joriy etish, savdo statistikasi va hisobotlarini tahlil qilish, natijalarni rahbariyatga taqdim etish, mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish va xizmat sifatini boshqarish, konfliktlarni hal etish, mijoz shikoyatlarini tahlil qilish va bartaraf etish.	- Savdo siyosati va strategik qarorlarning to'g'riligiga, korxona moliyaviy natijalari va foyda ko'rsatkichlariga, xodimlar faoliyati, savdo madaniyati va mijozlar bilan ishlash sifatiga, tovarlar xavfsizligi, sifat nazorati va saqlanish sharoitlariga, ichki tartib va moliyaviy intizomga rioya etilishini ta'minlashga, korxona obro'sini saqlash va axborot maxfiyligini himoya qilishga. - Mutaxassis quyidagi darajada mustaqillikni namoyon etadi: Savdo jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda mustaqil qaror qabul qiladi, strategik rejalashtirish, marketing siyosati va narx belgilashda tashabbus ko'rsatadi, ish jarayonida iqtisodiy tahlil asosida mustaqil yechimlar ishlab chiqadi, rahbarlik funksiyalarini bajaradi, jamoa faoliyatini	46.90 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo 14200006 Savdo bo'limi boshlig'i 24321001 Brend-menejer 24334006 To'varshunos 13230023 Xo'jalik (uy-joy kommunal, reagent, ombor va boshqalar) boshlig'i
---	---	--	--	--	--


				muvofiqlashtiradi, murakkab yoki nostandart savdo vaziyatlarida mas'uliyat bilan qaror qabul qiladi, o'z faoliyati natijalari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.	
7	7.1	-Mutaxassis quyidagi sohalar bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ladi: -Iqtisodiy va investitsiya siyosati: davlat investitsiya siyosati, xalqaro investitsiya huquqi va moliyaviy mexanizmlar, xalqaro loyihalarni boshqarish (Project Management, PRINCE2, PMP standartlari), xavf tahlili va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash usullari. - Tashqi iqtisodiy faoliyat: -Eksport-import operatsiyalari, tashqi savdo shartnomalari va logistika tizimi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (WTO, UNIDO, IMF, World Bank) faoliyati asoslari, valyuta bozori, tashqi moliya institutlari va	-Investitsiya loyihalarini rejalashtirish, amalga oshirish va samaradorligini baholash. -Xalqaro sheriklar bilan muzokara olib borish va kelishuvlar tuzish. -Iqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish: -Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va bozor tendensiyalarini tahlil qilish. -Tahlil natijalariga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish. -Korxonaning moliyaviy, tashkiliy va huquqiy faoliyatini muvofiqlashtirish. -Xodimlarni boshqarish, jamoaviy ishni tashkil etish va motivatsiyani ta'minlash.	- Vakolatxona yoki bo'lim faoliyatining strategik natijalari va moliyaviy samaradorligi uchun shaxsan javobgar; - Davlat siyosati, xalqaro kelishuvlar va tashkilot strategiyasini amalda ta'minlaydi; - Investitsiya loyihalaridagi moliyaviy, huquqiy va axborot xavflarini kamaytirish choralarini ko'radi; - O'z qarorlari tashkilotning moliyaviy holati va nufuziga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. - Qaror qabul qilishda yuqori darajada tashabbuskor va mustaqil;	46.90 Ixtisoslashmagan ulgurji savdo 11200045 Vakolatxona rahbari (mudiri) va o'rinbosarlari 12111008 Investitsiya loyihalari bo'yicha direktor 12210009 Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)

		xalqaro hamkorlik mexanizmlari. -Strategik boshqaruv va liderlik: -Korporativ boshqaruv tamoyillari, strategik rejalashtirish va korporativ madaniyat, ta'sirchan boshqaruv usullari, o'zgarishlarni boshqarish va innovatsiyani joriy etish, inson resurslarini boshqarish va rag'batlantirish tizimi. - Axborot va raqamli boshqaruv: - Axborot tizimlaridan (CRM, ERP, BI) foydalanish, Raqamli diplomatiya va xalqaro muloqot etikasi to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi.	-Innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. -Milliy va xalqaro bozorda raqobat ustunligini ta'minlash.	- Loyiha va strategiyalarni ishlab chiqishda davlat siyosatiga muvofiq, lekin avtonom fikr va yechimlar taklif qiladi; - Tashqi sheriklar bilan muzokaralar va bitimlar tuzishda shaxsiy vakolat va ishonch asosida faoliyat yuritadi; - Ichki jarayonlarni tashkil etishda innovatsion, kreativ va ilmiy yondashuvdan foydalanadi.	
	7.2	- Transport, ombor, taqsimot va ta'minot tizimlari hamda ularning o'zaro integratsiyasi. - Supply Chain Management (SCM), Just-in-Time, Lean Logistics, ERP tizimlari asoslari. - Xalqaro transport koridorlari va Incoterms qoidalar.	- Ta'minot zanjirini rejalashtirish, nazorat qilish va optimallashtirish. -Logistika jarayonlarini tahlil qilish va samaradorlikni oshirish bo'yicha qaror qabul qilish. -Transport kompaniyalari, omborlar, distribyutorlar va mijozlar faoliyatini muvofiqlashtirish.	- Korxona logistika strategiyasi, ta'minot zanjiri samaradorligi va xarajatlar uchun to'liq javobgar. - Mahsulot va xizmatlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berishni ta'minlash uchun mas'ul.	52.25- Logistika xizmati faoliyati 13241007 Logistika bo'yicha menejer (logistik)

		- Logistika faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, xarajat tahlili va optimallashtirish usullari. - Loyiha boshqaruvi, moliyaviy hisob-kitob va xatarlarni tahlil qilish. - Eksport-import qonunchiligi, bojxona tartiblari va xalqaro kelishuvlar. - Xalqaro transport va sug'urta shartnomalari (CIM, CMR, FIATA h.k.). - Logistikada IoT, Big Data, GPS va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish. - Logistika tahlil dasturlari (SAP, Oracle SCM, 1C Logistics, Excel Power BI) bilan ishlash.	-Logistika bo'limi xodimlarini boshqarish va ish jarayonini tashkil etish. - Xorijiy hamkorlar bilan muzokara olib borish, shartnoma va tenderlarni tayyorlash. -Bojxona, sertifikatlash va sug'urta jarayonlarini muvofiqlashtirish. -Yangi logistika texnologiyalarini joriy etish, raqamli platformalar orqali ish yuritish. -Karbon izini (carbon footprint) kamaytirish, "yashil logistika" tamoyillarini qo'llash.	- Moliyaviy hisob-kitoblarda aniqlik, xavfsizlik va xalqaro standartlarga rioya etilishi uchun javob beradi. - Jamoa faoliyati, kontragentlar bilan munosabatlar va shartnomalar bajarilishi uchun shaxsan javobgar. - Tashkilot logistika siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda mustaqil qaror qabul qiladi. - Iqtisodiy tahlil, risk baholash va strategik rejalashtirish asosida avtonom yechimlar taklif etadi. - Xorijiy sheriklar va davlat organlari bilan muzokara olib borishda vakolatli shaxs sifatida harakat qiladi. -Innovatsion loyihalar, optimal yo'nalishlar va transport yechimlarini mustaqil ishlab chiqish qobiliyatiga ega.	
--	--	---	--	--	--

8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar	O'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyati; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	
---	---	---	---	---	--

7. Tarmoqning funksional xaritasi



**8. Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Savdo-sanoat palatasi, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i	Kadirov N.O.
2	Savdo-sanoat palatasi, Tadbirkorlik asoslariga o'qitish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Ataboyev N.A.
3	Savdo-sanoat palatasi, Tadbirkorlik asoslariga o'qitish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Yusupova G.A.
4	Savdo-sanoat palatasi, Tadbirkorlik asoslariga o'qitish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Sadullayeva R.P.
5	"O'zbekzargarsanoati" uyushmasi raisi o'rinbosari	Salomov D.S.
6	"O'zbekzargarsanoati" uyushmasi bosh mutaxassisi	Dusyarov O.X.
7	"Sofizar" MCHJ ning yuridik bo'limi boshlig'i	Sobirov S.S.
8	"Savdo va servis" uyushmasi raisi, Korzinka supermarketlar tarmog'i asoschisi	Hoshimov Z.K.

Mazkur Tarmoq malakalar ramkasi Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 26-yanvar 2026 - yildagi 1 - son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 16 - yanvar 2026 - yildagi TMR-018 - son xulosasi.

Savdo sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

